



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

**10.00.06 – QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK
IXTISOSLIGI BO‘YICHA TAYANCH DOKTORANTURAGA KIRISH
SINOVLARI UCHUN MUTAXASSISLIK FANLARIDAN**

DASTUR VA BAHOLASH MEZONI

Annotatsiya:

Dastur 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik mutaxassisliklarining 2026-yilda tasdiqlangan o‘quv rejasidagi asosiy fanlar asosida tuzildi.

Tuzuvchilar:

Nurmuhamedov Y.Sh.	–	SamDU, Ingliz ili, tilshunosligi va adabiyoti kafedrası mudiri, filologiya fanlari doktori, dotsent
Isakova N.A.	–	SamDU, Ingliz tili, tilshunosligi va adabiyoti kafedrası professori, PhD

Dastur Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati institutining 2026-yil 26-avgustdagi 1-sonli Kengash yig‘ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida ilm-fan va ta'limni rivojlantirish, zamonaviy ilmiy tadqiqot yo'nalishlarini takomillashtirish, jahon ilm-fani yutuqlarini milliy ilmiy maktablar bilan uyg'unlashtirish hamda yuqori malakali ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Xususan, filologiya fanlari sohasida milliy adabiyotning jahon adabiy jarayonidagi o'rnini belgilash, adabiy aloqalar va badiiy tafakkur taraqqiyotini qiyosiy o'rganish, badiiy asarlarning boshqa tillarga tarjimasi bilan bog'liq nazariy va amaliy masalalarni tadqiq etish muhim ilmiy vazifalardan hisoblanadi.

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi turli xalqlar adabiyotlari o'rtasidagi o'zaro aloqalar, adabiy ta'sir va tipologik mushtarakliklar, milliy adabiyotlarning o'ziga xos xususiyatlari, badiiy tarjimaning nazariy va amaliy muammolari, tarjima jarayonida yuzaga keladigan lingvistik, lingvomadaniy, uslubiy, pragmatik va kommunikativ masalalarni kompleks tadqiq etishga yo'naltirilgan.

Mazkur ixtisoslik bo'yicha tayanch doktoranturaga kiruvchi da'vogarlardan qiyosiy adabiyotshunoslik, adabiy aloqalar, jahon adabiyoti, tarjima nazariyasi, tarjima amaliyoti, tarjima tanqidi, badiiy matnning milliy-madaniy xususiyatlari hamda zamonaviy tarjimashunoslik metodologiyasi bo'yicha chuqur nazariy bilim va ilmiy-tadqiqot ko'nikmalariga ega bo'lish talab etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining amaldagi materiallarida 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi doirasida qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik yo'nalishlarida PhD va DSc dissertatsiyalari himoya qilinayotgani mazkur ixtisoslikning ilmiy ko'lami kengligini ko'rsatadi.

Mazkur dastur tayanch doktoranturaga kiruvchi da'vogarning ixtisoslik bo'yicha nazariy bilimlari, ilmiy tafakkuri, qiyosiy tahlil qilish qobiliyati, badiiy va tarjima matnlarini ilmiy tahlil qilish ko'nikmasi hamda mustaqil ilmiy tadqiqot olib borish salohiyatini aniqlashga xizmat qiladi.

I. QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK FANIDAN

Qiyosiy adabiyotshunoslikning predmeti, obyekti, maqsadi va vazifalari. Komparativistika tushunchasi va uning shakllanish tarixi. Qiyosiy adabiyotshunoslikning fan sifatida shakllanish bosqichlari. Qiyosiy adabiyotshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi. Adabiyotshunoslik, tarix, falsafa, estetika, madaniyatshunoslik va lingvistika bilan o'zaro munosabati.

Qiyosiy adabiyotshunoslikning asosiy metodologik tamoyillari. Tarixiy-qiyosiy metod. Tipologik qiyoslash. Genetik-tipologik yondashuv. Funksional

qiyosiy tahlil. Struktur-semiotik yondashuv. Intertekstual tahlil. Kognitiv va lingvomadaniy yondashuvlar.

Adabiy aloqalar tushunchasi. Milliy adabiyotlararo munosabatlar. Adabiy ta'sir va ijodiy o'zlashtirish. Adabiy aloqa shakllari. Bevosita va bilvosita adabiy aloqalar. Sharq va G'arb adabiy aloqalari. O'zbek adabiyotining jahon adabiyoti bilan munosabatlari.

Adabiy an'ana va novatorlik. An'ana, taqlid, o'zlashtirish, ijodiy transformatsiya va intertekstual munosabat tushunchalari. Bir adabiyotdagi janr, syujet, obraz, motiv va poetik vositalarning boshqa adabiyotda qayta talqin qilinishi.

Tipologik mushtarakliklar. Turli milliy adabiyotlarda o'xshash ijtimoiy-tarixiy sharoitlarning badiiy tafakkurga ta'siri. Tipologik yaqinlik va genetik aloqaning farqi. Adabiy hodisalarning umumiy va milliy xususiyatlarini aniqlash.

Badiiy obrazning qiyosiy tadqiqi. Obraz, xarakter, tip, arxetip va konsept tushunchalari. Turli adabiyotlarda bir xil obrazning milliy talqini. Ayol obrazi, ona obrazi, qahramon, hukmdor, sayyoh, darvesh, yetim bola kabi universal va milliy obrazlarning qiyosiy tahlili.

Motiv va syujetlarning qiyosiy o'rganilishi. "Yo'qotilgan jannat", "yo'l", "safar", "ishq", "qahramonlik", "xiyonat", "qasos", "ona", "yetimlik" kabi motivlarning turli adabiyotlarda talqin qilinishi.

Janrlarning qiyosiy tadqiqi. Epik, lirik va dramatik janrlar. Roman, qissa, hikoya, doston, g'azal, masnaviy, drama va tragediyaning milliy adabiyotlarda rivojlanishi. Janrlar transformatsiyasi va janrlararo sintez.

Poetik vositalarning qiyosiy tadqiqi. Metafora, metonimiya, epitet, o'xshatish, ramz, allegoriya, ironiyaga oid qiyosiy tadqiqotlar. Badiiy tasvir vositalarining milliy-madaniy xususiyatlari.

Adabiy jarayon va madaniy transfer. Adabiyotlararo dialog. Madaniyatlararo kommunikatsiya va badiiy adabiyot. Milliy o'ziga xoslik va umuminsoniy qadriyatlar.

Sharq va G'arb adabiyoti munosabatlari. Arab, fors-tojik, turkiy, ingliz, rus, fransuz va boshqa adabiyotlar bilan o'zbek adabiyotining aloqalari. Alisher Navoiy ijodining jahon adabiyotidagi o'rni. Navoiy va boshqa Sharq adabiyotlari. Navoiy va G'arb adabiyotshunosligi.

O'zbek adabiyotining jahon adabiyotidagi o'rni. Zamonaviy o'zbek adabiyotining xorijiy adabiyotlar bilan aloqalari. Adabiy tarjima va milliy adabiyotning xalqaro maydonga chiqishi.

II. TARJIMASHUNOSLIK FANIDAN

Tarjimashunoslikning predmeti, obyekti, maqsadi va vazifalari. Tarjima tushunchasi va uning asosiy funksiyalari. Tarjima jarayoni va tarjima mahsuli. Tarjimaning kommunikativ, lingvistik, adabiy-estetik va madaniy mohiyati.

Tarjima nazariyasining shakllanish tarixi. Qadimgi davr va o'rta asrlarda tarjima masalalari. G'arb va Sharq tarjima an'analari. Tarjima nazariyasining XX asrda rivojlanishi. Zamonaviy tarjimashunoslik paradigmalari.

Tarjimaning asosiy turlari. Og'zaki va yozma tarjima. Sinxron va konsekutiv tarjima. Badiiy, ilmiy-texnik, siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, tibbiy va audiovizual tarjima. Lokalizatsiya va transkreatsiya.

Tarjima birliklari. So'z, so'z birikmasi, gap, matn va diskurs tarjima birligi sifatida. Tarjima jarayonida kontekstning roli.

Tarjimada ekvivalentlik muammosi. Formal va dinamik ekvivalentlik. Semantik, funksional, kommunikativ, pragmatik va stilistik ekvivalentlik. Eugene Nida va Charles Taber qarashlari. Mona Bakerning ekvivalentlik darajalari. Vanessa Leonardi yondashuvida tarjima ekvivalentligi.

Adekvarlik va ekvivalentlik tushunchalari. Tarjima adekvatligi mezonlari. Tarjimaning maqsadi va Skopos nazariyasi. Hans J. Vermeerning Skopos nazariyasi. Tarjima strategiyasini tanlashda kommunikativ maqsadning o'rni.

Tarjima transformatsiyalari. Leksik, grammatik va leksik-grammatik transformatsiyalar. Transliteratsiya, transkripsiya, kalkalash, konkretlashtirish, umumlashtirish, modulyatsiya, almashtirish, qo'shish va tushirib qoldirish.

To'g'ridan-to'g'ri va bilvosita tarjima. Literal translation, faithful translation, free translation tushunchalari. Adaptatsiya va uning tarjima jarayonidagi o'rni.

Badiiy tarjima nazariyasi. Badiiy matnning estetik, emotsional va kommunikativ xususiyatlarini tarjimada qayta yaratish. Muallif uslubi va tarjimon uslubi. Individual uslubni saqlash muammosi.

Milliy kolorit va realiyalar tarjimasi. Etnografik, geografik, tarixiy, diniy va ijtimoiy-madaniy realiyalar. Realiza tarjimasining asosiy usullari. Izoh, tavsifiy tarjima, transliteratsiya, muqobil ekvivalent va madaniy substitutsiya.

Frazeologik birliklar va idiomalarni tarjima qilish. To'liq ekvivalent, qisman ekvivalent, analog va ekvivalentsiz frazeologik birliklar. Idiomalarning lingvomadaniy xususiyatlari.

Metafora, ramz, o'xshatish va epitet tarjimasi. Badiiy tasvir vositalarining tarjimada qayta yaratilishi. Muallif metaforasi va konvensional metaforaning tarjimasi.

Hazil, kinoya, ironiya va so'z o'yinlarini tarjima qilish. Pragmatik va madaniy moslashtirish. Tarjimada emotsional-ekspressiv ma'noni saqlash.

She'riy tarjima. Ritm, qofiya, vazn, obrazlilik va poetik mazmun. Erkin va ekvivalent she'riy tarjima. She'riy matnda shakl va mazmun munosabati.

Terminlar tarjimasi. Ilmiy va kasbiy terminlarning ekvivalentligi. Terminologik muvofiqlik va tarjima standartlari. Yangi terminlarning tarjimada shakllanishi.

Tarjima tanqidi. Tarjimani baholash mezonlari. Tarjima sifatini aniqlash. Tarjima xatolarining turlari. Semantik, pragmatik, stilistik va madaniy xatolar.

Tarjima va madaniyat. Madaniyatlararo kommunikatsiya. Tarjima madaniyatlararo vositachi sifatida. Madaniy transfer. "O'zimizniki" va "begona" tushunchalarining tarjimadagi ifodasi.

Tarjima va pragmatika. Kommunikativ intensiya. Presuppozitsiya, implikatura, deysis, nutq aktlari va ularning tarjimada berilishi.

Zamonaviy tarjimashunoslik. Korpus tarjimashunosligi. Parallel korpuslar. Mashina tarjimasi. CAT texnologiyalari. Neyron mashina tarjimasi. Post-editing. Sun'iy intellekt va tarjima. Tarjimonning zamonaviy raqamli kompetensiyalari.

III. QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIKNING O'ZARO ALOQASI

Adabiy tarjima qiyosiy adabiyotshunoslikning muhim manbalaridan biri sifatida. Tarjima orqali milliy adabiyotlar o'rtasidagi aloqalarning shakllanishi.

Tarjima matnini mustaqil badiiy-estetik hodisa sifatida o'rganish. Asl matn va tarjima matnining qiyosiy tahlili.

Muallif, tarjimon va kitobxon uchligi. Tarjima jarayonida kommunikativ munosabatlar.

Asl matn va tarjima matnining kompozitsion, semantik, stilistik va pragmatik xususiyatlari.

Adabiy ta'sir va tarjima. Tarjima orqali adabiy janrlar, obrazlar, motivlar va poetik vositalarning boshqa milliy adabiyotga kirib kelishi.

Tarjimaning milliy adabiyot rivojiga ta'siri. Tarjima adabiy jarayonni boyituvchi omil sifatida.

Tarjima va intertekstual munosabat. Tarjima matnidagi iqtibos, alluziya, reminissensiya va boshqa intertekstual birliklarning berilishi.

Tarjimada milliy-madaniy birliklar. Lingvomadaniy birliklarning qiyosiy tahlili.

Badiiy asarlarning qayta tarjimasi. Bir asarning turli davr va tarjimonlar tomonidan amalga oshirilgan tarjimalarini qiyosiy o'rganish.

Tarjima tarixining milliy adabiyot tarixidagi o'rni.

IV. ILMIY-TADQIQOT METODOLOGIYASI VA METODLARI

Ilmiy tadqiqot tushunchasi. Ilmiy muammo, ilmiy faraz, tadqiqot obyekti va predmeti. Tadqiqot maqsadi va vazifalari.

Qiyosiy tadqiqot metodologiyasi. Qiyoslashning tamoyillari. Qiyosiy material tanlash mezonlari. Parallel va qiyosiy korpuslardan foydalanish.

Tarixiy-qiyosiy metod. Tipologik metod. Chogʻishtirma metod. Struktur-semantik metod. Kontekstual tahlil. Komponent tahlili.

Lingvopoetik tahlil. Semantik-stilistik tahlil. Pragmatik tahlil. Lingvomadaniy tahlil. Diskursiv tahlil.

Intertekstual tahlil. Kognitiv tahlil. Konseptual tahlil. Narratologik tahlil. Germenevtik yondashuv.

Tarjima matnini qiyosiy tahlil qilish metodikasi. Asl va tarjima matnlarini parallel tahlil qilish. Tarjima transformatsiyalarini aniqlash va tasniflash.

Tarjima sifatini baholash metodlari. Ekvivalentlik, adekvatlik, funksional moslik va kommunikativ samaradorlik mezonlari.

Korpus metodlari. Parallel korpuslar. Elektron matnlar bazasi. Korpus asosida tarjima birliklarini statistik va funksional tahlil qilish.

Statistik metod. Miqdoriy va sifat tahlili. Natijalarni jadval va diagrammalar asosida ifodalash.

Ilmiy tadqiqot natijalarini umumlashtirish. Ilmiy yangilik, nazariy va amaliy ahamiyatni asoslash.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абдуазизов А.А., Бушуй А.М., Бушуй Т.А., Салиева М.А., Сиддикова И.А. История лингвистической типологии. – Ташкент: 2016. – 176 б.
2. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М., 1966. – 608 с.
3. Бархударов Л.С. Язык и перевод: Вопросы общей и частной теории перевода / Л.С.Бархударов. – М.: Междунар. Отношения, 1975. – 240 с.
4. Брейс Е.В. Основы теории и практики перевода с русского языка на английский/ Е.В.Брейс. – М.: Изд-во УРАО, 2000. – 207 с.
5. Бушуй Т, Рузикулов Ф. Краткий курс сравнительной типологии. –Ташкент, 2015. – 187 б.
6. Вайбурд М.Л. Реалии как элемент страноведения// Рус. яз. за рубежом. 1972. № 3, – С. 98-100.
7. Виноградов В. С. Введение в переводоведение (общие и лексические вопросы)/ В.С.Виноградов. – М.: Изд-во ин-та общ. сред. образования РАО, 2001. – 224 с.
8. Виноградов В.С. Лексические вопросы перевода художественной прозы. – М.: Высш. Шк., 1978. – 350 с.
9. Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. 2-е изд., исправ. и доп. – М., 1986. – 415 с.
10. Комиссаров В. Н. Новые тенденции в переводоведении/ В.Н.Комиссаров// Информационно-коммуникативные аспекты перевода: сб, науч, тр. Ч. 1. Н. – Новгород: НГЛУ им.Н.А. Добролюбова, 1997. – С.167.
11. Комиссаров В. Н. Общая теория перевода: учеб. Пособие/ В.Н.Комиссаров. – М.; 1999. – 136 с.
12. Комиссаров В. Н. Перевод как объект лингвистического описания/ Комиссаров В. Н.//Вопросы теории перевода в зарубежной лингвистике. – М.: Междунар. отношения, 1978. – С. 3-15.
13. Латышаев Л.К.Перевод: проблемы теории, практики и методики преподавания/ Л.К.Латышев. – М.:Просвещение, 1981.
14. Милевский Т. Предпосылки типологического языкознания // Сб. Исследования по структурной типологии. – М., 1963.
15. Рецкер.А.И. Теория перевода и переводческая практика: Очерки лингвистической теории перевода/ – М., 1974. – 216 с.
16. Саломов Ғ.Тил ва таржима. –Т. Фан, 1966. – 380 б.
17. Скребнев Ю.М. Основы стилистики английского языка. – Киев: Выща шк.,1984. – 241 с.

18. Томахин Г.Д. Реалии в языке и культуре// Иностр.яз. в шк. 1997. №3.
19. Трубецкой Н.С. Основы фонологии. – М., 1960. – С. 286-299.
20. Федеров А.В. Основы общей теории перевода/ – М., 1983.
21. Халлиева Г. XX аср Россия шарқшунослиги ва ўзбек мумтоз адабиёти. – Т., 2018. – 274 б.
22. Ширяев А.Ф. Синхронный перевод / – М., 1979.
23. Ярцева В.Н. Контрастивная грамматика. – М., 1981. – 52 с.
24. Bassnett S. Translation Studies. – London/New York: Routledge.
25. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. – London/New York: Routledge.
26. Baker M. Routledge Encyclopedia of Translation Studies. – London/New York: Routledge.
27. Catford J.C. A Linguistic Theory of Translation. – London: Oxford University Press.
28. Chesterman A. Memes of Translation: The Spread of Ideas in Translation Theory. – Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins.
29. Goethe J.W. Some Passages Pertaining to the Concept of World Literature.
30. Guillén C. The Challenge of Comparative Literature. – Harvard University Press.
31. Leonardi V. Equivalence in Translation: Between Myth and Reality. – Translation Studies / related scholarly works.
32. Munday J. Introducing Translation Studies: Theories and Applications. – London/New York: Routledge.
33. Nida E.A. Toward a Science of Translating. – Leiden: Brill.
34. Nida E.A., Taber C.R. The Theory and Practice of Translation. – Leiden: Brill.
35. Newmark P. A Textbook of Translation. – New York/London: Prentice Hall.
36. Reiss K., Vermeer H.J. Towards a General Theory of Translational Action. – London/New York: Routledge.
37. Venuti L. The Translator's Invisibility: A History of Translation. – London/New York: Routledge.
38. Venuti L. The Translation Studies Reader. – London/New York: Routledge.
39. Vermeer H.J. Skopos and Commission in Translational Action.
40. Holz-Mänttari J. Translatorisches Handeln: Theorie und Methode. – Helsinki.

41. Molina L., Hurtado Albir A. Translation Techniques Revisited: A Dynamic and Functionalist Approach. – Meta.
42. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent.
43. Rahimov G'. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent.
44. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent.
45. Yo'ldoshev Q. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent.
46. Karimov S. Nazariy tilshunoslik masalalari. – Samarqand.
47. Nurmonov A., Iskandarova Sh. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent.
48. Mahmudov N., boshqa mualliflar. O'zbek adabiyoti va tilshunosligiga oid tadqiqotlar.
49. O'zbek adabiyoti tarixi bo'yicha oliy ta'lim darsliklari va monografiyalar.
50. Jahon adabiyoti tarixi bo'yicha oliy ta'lim darsliklari.
51. Oliy attestatsiya komissiyasining 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo'yicha tasdiqlangan dissertatsiyalar va ilmiy ishlar.

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETINING TAYANCH DOKTORANTURA
IXTISOSLIKLARIGA KIRISH SINOVLARI UCHUN MUTAXASSISLIK
FANLARDAN TALABGORLARNING BILIMLARINI
BAHOLASH MEZONI**

Sinov topshirish shakli	Yozma
Ajratilgan vaqt	120 daqiqa
Savollar soni	5
Har bir savol uchun belgilangan ball	20
Eng yuqori ball	100